

«Ўзбекистон темир йўллари» АЖнинг  
2023 йил 4 сентябрь 687-Н сонли буйруғи билан  
“ТАСДИҚЛАНГАН”

“KO’PRIKQURILISH TRESTI”  
AKSIYADORLIK JAMIYATI

# USTAVI

Toshkent shahri – 2023 yil.

## I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. "KO`PRIKQURILISH TRESTI" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o`rinlarda – Jamiyat deb ataladi) O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15 avgustdagi 389/18-son qaroriga asosan tashkil etilgan.

1.2. O`zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to`g`risida"gi Qonuniga muvofiq, Jamiyatning huquqiy holati aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.

1.3. Jamiyat tijorat tashkiloti hisoblanadi.

Jamiyatning davlat tilidagi to`liq nomi:

**"KO`PRIKQURILISH TRESTI" aksiyadorlik jamiyati;**

Jamiyatning davlat tilidagi qisqartirilgan nomi:

**"KO`PRIKQURILISH TRESTI" AJ;**

Jamiyatning rus tilidagi to`liq nomi:

**Акционерное общество «Куприккурилиш трести»;**

Jamiyatning rus tilidagi qisqartirilgan nomi:

**АО «Куприккурилиш трести»;**

Jamiyatning ingliz tilidagi to`liq nomi:

**Join-Stock Company «Kuprikqurilish tresti»;**

Jamiyatning ingliz tilidagi qisqartirilgan nomi:

**«Kuprikqurilish tresti» JSC;**

1.4. Jamiyat yuridik shaxs hisoblanadi, o`zining mustaqil balansida aks ettiriladigan alohida mulkka shu jumladan o`zining ustav kapitaliga berilgan molmulkka, bank muassasalarida hisob raqamlariga, jumladan valyuta hisob raqamlariga, O`zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi tasviri tushirilgan dumaloq muhrga davlat tilida yozilgan emblema (logotip) va shtamlarga ega. Muhrdan bir vaqtning o`zida Jamiyatning nomi boshqa istalgan tilda ham ko`rsatilishi mumkin.

1.5. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasiga mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qat`iy nazar korxonalar va tashkilotlar, shuningdek chet-el yuridik shaxslari kirishi mumkin.

1.6. Jamiyat qonunchilikda belgilangan tartibda korxonalar, tashkilotlar va muassasalar, jumladan filiallar hamda vakolatxonalar tashkil etishi mumkin.

1.7. Jamiyat o`z faoliyatini amalga oshirishda, O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O`zbekiston Respublikasi qonunlarig Oliy Majlis palatalari qarorlariga O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarig O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga va mazkur Ustavga amal qiladi.

1.8. Mazkur Ustav bilan tartibga solinmagan huquqiy munosabatlar O`zbekiston Respublikasining boshqa qonun va me`yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek xalqaro bitimlar va shartnomalar bilan tartibga solinadi.

1.9. Jamiyatning joylashgan manzili: O`zbekiston Respublikasi, 100054, Toshkent shahar, Chilonzor tuman, Bog`iston ko`chasi, 10-A uy; Electron pochta manzili: [kktaj15082023@gmail.com](mailto:kktaj15082023@gmail.com); Jamiyatning rasmiy veb-sayti: [www.kkt.uz](http://www.kkt.uz).

## II. JAMIYATNING ASOSIY VAZIFALARI VA FUNKSILARI

2.1 Jamiyat tijorat tashkiloti bo`lib, asosiy maqsadi moliyaviy-xo`jalik faoliyatidan foyda olishdir.

2.2 Jamiyat faoliyatining asosiy vazifalari quidagilardan iborat:

- xalqaro standartlar asosida innavatsion texnologiyalarni joriy etgan holda yo`l o`tkazgichlar, ko`priklar, tonellar va avtomobil yo`llarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta`mirlash;

3.4.1. Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, tugallanmagan balans va xo'jalik faoliyatini yurituvchi filiallar:

- 13-ko'prikqurilish otryadi – Toshkent shaxri;
- 14-ko'prikqurilish otryadi – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli tumani, Tahiyatosh shaharchasi;
- 67- ko'prikqurilish otryadi - Toshkent shahri;

3.4.2 Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi korxonalar:

- “1-KO'PRIKQURILISH OTRYADI” MCHJ - Toshkent shahri;
- “2-KO'PRIKQURILISH OTRYADI” MCHJ – Andijon viloyati, Andijon tumani;
- “KO'PRIKQURILISHBUTLASH” MCHJ - Toshkent shahri;
- “Xorazm temir yo'l qurilishi” MCHJ – Xorazm viloyati, Urganch shahri;
- “KO'PRIKQURILISHLOYIHA ” MCHJ - Toshkent shahri;
- “KO'PRIKSIFATNAZORAT ” MCHJ - Toshkent shahri;
- “KO'PRIKQURILISHTA'MIRLASH DIREKSIYASI” MCHJ - Toshkent shahri;
- “KO'PRIKQURILISHFOYDALANISH ” MCHJ - Toshkent shahri;
- “Chinoz maxsus temir beton konstruksiyalari zavodi” MCHJ – Toshkent viloyati,

Chinoz tumani;

- “MAXSUS TEMIR BETON BUYUMLARI VA KONSTRUKSIYALARINI ISHLAB CHIQRISH ZAVODI ” MCHJ - Toshkent shahri;

3.5. Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari jamiyat boshqaruvb raisining buyrug'i bilan lavozimlarga tayinlanadilar, lavozimlaridan ozod qilinadilar va boshqa lavozimga o'tkaziladilar.

3.6. “13-ko'prikqurilish otryadi”, “14- ko'prikqurilish otryadi” va “67- ko'prikqurilish otryadi” filiallari rahbarlari jamiyat boshqaruvi bergan ishonchnomalar asosida faoliyat ko'rsatadilar.

### **3.7. Ustav fondini ko'paytirish**

3.7.1. Jamiyat ustav kapitali qo'shimcha aksiyalar joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin

3.7.2. Agar qonunchilikda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, qo'shimcha aksiyalar yopiq obuna usulida joylashtirilishi mumkin.

3.7.3. Jamiyat ustav kapitalini ko'paytirish (aksiyalarni joylashtirish, narxini belgilash, aksiyalar emissiyasi risolasi va ularni chiqarish) va bu to'g'risida mazkur ustavga tegishli o'zgartirish kiritish haqidagi qarorni Jamiyat Yagona aksiyadori qabul qiladi.

3.7.4. Qo'shimcha ravishda chiqarilgan aksiyalar uni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan, lekin davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan ortiq bo'lmagan muddatda joylashtirilishi lozim

3.7.5. E'lon qilingan aksiyalarning umumiy soni doirasida chiqarishda va joylashtirishda aksiyalarning sotib olingan qismi Jamiyat ustav kapitaliga o'tkaziladi.

### **3.8. Ustav fondini kamaytirish**

3.8.1. Jamiyatning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan, aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

3.8.2. Jamiyat ustav kapitalini kamaytirish, Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartirish kiritish, Jamiyat Ustavini yangi tahrirda tasdiqlash to'g'risidagi qaror Jamiyat kuzatuv kengashining yig'ilishini o'tkazmasdan, Jamiyat Yagona aksiyadori tomonidan qabul qilinadi.

## **IV. JAMIYAT AKSIYALARINIG SONI, NOMINAL QIYMATI, TURLARI**

4.1. Jamiyat tomonidan har birining nominal qiymati 1000 so'm bo'lgan, oddiy, egasining nomi yozilgan, umumiy qiymati 1 445 258 000 so'mga teng bo'lgan, 1 445 258 dona aksiyalar chiqarilgan.

4.2. Jamiyat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish, ro'yxatga olish, joylashtirish va hisob-kitob qilish tartibi amaldagi qonunchilik hamda mazkur ustavga muvofiq belgilanadi.

4.3. Jamiyat aksiyalar, obligatsiyalar va O'zbekiston Respublikasi qonunlarida man etilmagan boshqa qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish xuquqiga ega.

4.4. Aksiyadorlar birinchi chiqarilgan aksiyalar uchun badallarini faqat pul mablag'lari bilan to'lashlari, keyingi chiqariladigan aksiyalar uchun esa quyidagi usullar bilan to'lashlari mumkin: pul ko'rinishida (so'mda yoki chet el valyutasida); turli mulk ko'rinishida; qimmatli qog'ozlar ko'rinishida.

## **V. AKSIYADORNING HUQUQ VA BURCHLARI.**

5.1. Jamiyatning xar bir oddiy aksiyasi aksiyadorga, ya'ni uning egasiga teng xuquq beradi.

5.2. Oddiy aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar qonunga va jamiyat ustaviga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish xuquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, jamiyat tugatilgan taqdirda esa, o'zlariga tegishli ulushga muvofiq jamiyat mol-mulkinging bir qismini olish xuquqiga ega.

5.3. Aksiyadorlar quyidagi xuquqlarga ega:

- tegishli jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilish;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;
- jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
- olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z xuquqlarini ximoya qilish;
- o'ziga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

5.4. Qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda extimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish xuquqiga ega.

5.5. Aksiyadorlar majburiyatlari:

- ushbu ustavda ko'zda tutilgan tartib, miqdor va usulda aksiyalarga pul to'lash;
- ushbu ustavda va O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning xuquqlarini ximoya qilish to'g'risida"gi Qonunida (keyingi matnlarda Qonun) ko'rsatilgan tartibda Jamiyat boshqaruvida qatnashish;
- Jamiyat boshqaruvi organlarining qarorlariga, mazkur ustavda ko'zda tutilgan doirada bo'ysunish;
- Jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotlarni tarqatmaslik.

## **VI. ZAXIRA VA BOSHQA JAMG'ARMALARNI TASHKIL ETISH TARTIBI**

5.5. Aksiyadorlar majburiyatlari:

6.1. Jamiyat sof foydasi hisobidan ustav fondining (ustav kapitalining) 15 foizi miqdorida-zaxira fondi tashkil etiladi.

6.2. Jamiyatning zahira fondi jamiyat ustavida belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydadan har yilgi majburiy ajratmalar orqali shakllantiriladi. har yilgi ajratmalarining miqdori jamiyat ustavida nazarda tutiladi, ammo bu miqdor jamiyat ustavida belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydaning besh foizidan kam bo'lmashligi kerak.

6.3. Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, jamiyatning zahira fondi jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi.

6.4. Jamiyatning zahira fondidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalaniladi.

6.5. Jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga binoan boshqa fondlar ham tashkil etilishi mumkin.

## VII. DIVIDENDLARNI TAQSIMLASH VA TO'LASH TARTIBI

7.1. Dividend jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir.

7.2. Jamiyat aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

7.3. Dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari, yoxud jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

7.4. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

7.5. Jamiyat moliyaviy yilning natijalariga ko'ra, joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga xaqli.

7.6. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror jamiyat kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi xaqida auditorlik hulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas.

7.7. Dividendlar jamiyatning jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

7.8. Dividendlarni to'lash muddati va tartibi jamiyat aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmashligi lozim.

7.10. Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan jamiyat aksiyadorlarining reestrda qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish xuquqiga ega.

7.11. Dividendlarni to'lashga doir cheklovlar, jamiyat:

- agar dividendlar to'lanadigan paytda jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;

- agar jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondi (ustav kapitali) va zahira fondi summasidan kam bo'lsa, aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to'lashga xaqli emas.

7.13. Jamiyat to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining va jamiyatning rasmiy veb-saytlarida qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda e'lon qiladi.

7.14. Dividendlarga soliq solish soliq to'g'risidagi qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi va bunda soliq solish bo'yicha imtiyozlar belgilanishi mumkin.

## **VIII. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHI VA UNING VAKOLATLARI**

8.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi jamiyatning boshqaruv organlaridir.

8.2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

8.3. Jamiyat har yili aksiyadorlarning yillik (navbatdagi) umumiy yig'ilishini o'tkazishi shart. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi yil tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida jamiyatning kuzatuv kengashini va taftish komissiyasini (taftishchisini) saylash to'g'risidagi, shuningdek jamiyatning yillik xisoboti, jamiyat ijroiya organi va kuzatuv kengashining jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi xisobotlari va boshqa xujjatlari ko'rib chiqiladi.

8.5. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi xaqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

8.6. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- jamiyatni qayta tashkil etish;
- jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- jamiyat taftish komissiyasining a'zolarini (taftishchisini) saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi (taftishchi) to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;
- jamiyatning yillik hisobotini va yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;
- jamiyatning foydasini taqsimlash va zararlarini qoplash boshqaruv yig'ilishi va kuzatuv kengashini qarori bilan taqsimlash;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;
- qonun xujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni xal etish.

## **IX. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI VA UNING VAKOLATLARI**

9.1 Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolatiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyatning yillik biznes-rejasini ma'qullash. Bunda Jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;
- Jamiyatning ichki audit xizmatini tashkil etish, uning xodimlarini tayinlash va "Ichki audit hizmati to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;
- Jamiyat ijro etuvchi organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan belgilangan tartibda erkin foydalanish va Jamiyat Kuzatuv kengashiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun ushbu hujjatlarni Jamiyat ijroiya organidan olish. Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

- jamiyatning tashkiliy tuzilmasini, boshqaruv yig'ilishi va kuzatuv kengashini qarorini tasdiqlash;

- O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan holatlarda bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning zahira va boshqa fondlaridan fondlarni shakllantirish va ulardan foydalanish hamda zararlarini qoplash;

- Jamiyatning filiallarini tashkil etish hamda vakolatxonalarini ochish va tugatish;

- Jamiyatning filiallarini va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

- Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

- jamiyat mulkni begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmini, jamiyat va uning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlarni (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) ko'rib chiqish;

- "muvofiqlik tizimi" (Kompleans) xizmatini tashkil etish hamda faoliyat tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

- Jamiyat biznes-rejasida belgilangan maqsadlarga erishishini monitoring qilish;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

9.2 Jamiyat Kuzatuv kengashi faoliyatining tartibi Jamiyat Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizomda belgilanadi.

9.3. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolati doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyat Boshqaruviga hal etish uchun berilishi mumkin emas.

9.4 Jamiyat Kuzatuv kengashining yig'ilishlari har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi.

9.5. Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi, Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilish paytida, agar ovozlar soni teng bo'lib qolsa, hal qiluvchi ovozga ega bo'ladi.

## **X. JAMIYAT IJROIYA ORGANI**

10.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik ijroiya organ – Jamiyat Boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv faoliyatiga Jamiyat Boshqaruvi raisi rahbarlik qiladi.

10.2. Jamiyat Boshqaruvi tarkibiga Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari, boshqarma boshliqlari, bo'lim boshliqlari va xodimlar kirishi mumkin.

10.3. Jamiyat Boshqaruvi kollegial ijroiya organ asosidagi ijro etuvchi organ hisoblanib, uning kundalik faoliyatini boshqaradi va operativ rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat Ustavi, Jamiyat yagona aksiyadori va Kuzatuv kengashining qarorlariga muvofiq amalga oshiradi.

10.4. Jamiyat Boshqaruvi Jamiyatning yagona aksiyadori va Kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

10.5. Jamiyat Boshqaruvi raisi bilan mehnat shartnomasi Jamiyat nomidan Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi tomonidan imzolanadi. Boshqaruv a'zolari bilan mehnat shartnomalarini Jamiyat nomidan Boshqaruv raisi imzolaydi.

10.6. Jamiyat Boshqaruvi raisining o'rinbosarlari va xodimlari mazkur Ustavga va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Jamiyat Boshqaruvi raisi bilan mehnat shartnomasini tuzadilar

10.7. Jamiyat Boshqaruvining vakolatlariga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, Jamiyat yagona aksiyadorining mutlaq vakolatlariga yoki Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

10.8. Jamiyat Boshqaruvi Jamiyat Yagona aksiyadori va Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

10.9. Jamiyat Boshqaruvi ushbu Ustav va Jamiyat Yagona aksiyadori tomonidan tasdiqlangan "Ijroiya organi to'g'risida"gi Nizom asosida ish olib boradi.

10.10. Jamiyat Boshqaruvining majlisi zarur hollarda, biroq bir chorakda kamida bir marta o'tkaziladi.

10.11. Jamiyat Boshqaruvi majlisi uning kun tartibiga kiritilgan masalalarni, agar majlisda Boshqaruv a'zolarining 50 foizidan ortiq qismi qatnashsa, hal qilishga haqlidir.

10.12. Jamiyat Boshqaruvi majlisida qarorlar majlisda qatnashayotgan Boshqaruv a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Boshqaruv majlisida masalalar hal etilayotganda Boshqaruvning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda Jamiyat Boshqaruvi Raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

10.13. Jamiyat Boshqaruvining majburiyatlari va vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning mol –mulki va pul mablag'larini tasarruf etish;
- Jamiyatning tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;
- Jamiyat va uning sho'ba korxonalari, vakolatxonalari va filiallari uchun majburiy bo'lgan qaror, buyruq va farmoyishlar chiqarish;
- Jamiyatning tarkibiy bo'linmalarining o'zaro samarali harakatini ta'minlash;
- Jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalarini ishlab chiqish, ularni tashkil etish va bajarilishini nazorat qilish;
- Jamiyatning vakolatli boshqaruv organi tomonidan tasdiqlangan biznesrejada ko'rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta'minlash;
- qonunchilikka muvofiq jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi, zarur holati va ishonchligini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek Jamiyat yagona aksiyadoriga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;
- Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni Jamiyatning Kuzatuv kengashi va/yoki Jamiyat auditori talabiga ko'ra taqdim etish;
- o'z vakolati doirasida mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim tuzish (bitim tuzish masalasida Jamiyat Boshqaruvi yakdilligiga erishilmagan hollarda bitim tuzish to'g'risidagi masala Jamiyat boshqaruvi qaroriga muvofiq Kuzatuv kengashi hukmiga havola etilishi mumkin);
- Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash. Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxati Jamiyat Boshqaruvi tomonidan belgilanadi;
- o'z vakolatiga tegishli ishlarning holati to'g'risidagi axborotni Jamiyat yagona aksiyadoriga va Jamiyat Kuzatuv kengashiga belgilangan muddatda taqdim etish;
- Jamiyat Kuzatuv kengashi majlislarida qatnashish, dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilish;
- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlash;
- javobgarligini sug'urtalsh;
- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, hamda Jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish;
- Jamiyatning Boshqaruvi qonunchilik, ushbu ustav va Jamiyatning me'yoriy xujjatlariga muvofiq boshqa xuquq (vakolat) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

## **XI. JAMIYATNING MULKI, VOSITALARI VA SARMOYALARI**

11.1. Jamiyatning mulki egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish ob'ektlari bo'la oladigan moddiy ob'ektlar, shu jumladan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, ulushlar (paylar, hissalar) hamda nomoddiy ob'ektlarlaridan iborat bo'ladi;

11.2. Jamiyat o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mulkiga ega bo'ladi. Jamiyat o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga egalik qilishi va ularni amalga oshirishi, majburiyatlar bo'yicha javob berishi, sudda da'vogar va javobgar sifatida ishtirok etishi mumkin.

11.3. Jamiyat mulki quyidagi manbalar hisobidan shakllanadi:

- mahsulotlarni sotishdan, ish va xizmat ko'rsatishdan, shuningdek xo'jalik faoliyatining boshqa turlaridan olinadigan daromadlar;
- sotib olingan qimmatbaho qog'ozlardan tushgan daromadlar;
- ustav kapitalida ulushga ega bo'lgan tijorat korxonalarini foydasidan, shuningdek dividendlar tarzida olinadigan daromadlar;
- markazlashgan va markazlashmagan ajratmalar va mablag'lar; - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

11.4. Jamiyatning daromadi barcha turdagi xizmatlar va bajariladigan ish, shuningdek Jamiyat korxonalarining mahsulotini sotishdan tushadigan tushumlardan markazlashgan tartibda shakllanadi.

11.5. Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari, korxonalarini, tashkilotlari va muassasalari o'rtasida bepul (beg'araz) beriladigan (olinadigan) mol-mulkning qiymati daromad (zarar) deb hisoblanmaydi va qabul qilib oluvchi (beruvchi) tomonidan qo'shimcha qiymat solig'i va daromad solig'i bo'yicha soliqqa tortilmaydi.

11.6. Jamiyat korxonalarini o'rtasidagi ichki ko'chirishlar (o'tkazishlar), tashish jarayonini ta'minlash bilan bog'liq ish bajarish, xizmat ko'rsatishlar mahsulot sotish (ish, xizmat)dan olinadigan daromad (aylanma) sifatida qaralmaydi.

11.7. Jamiyat o'z tasarrufidagi mulk va mablag'lardan barcha korxonalarining manfaatlarini ko'zlab foydalanadi. Belgilangan tartibda qurishi, qayta tiklashi, sotib olishi, ko'chma va ko'chmas mulkni xarid qilishi, olishi, ijaraga olishi va berishi (ijaraga berilayotgan mulkning ijara haqi yuz foiz miqdorida ushbu mulkni balansida saqlovchi korxonaning hisob raqamiga tushadi) hamda qonunchilikda belgilangan tartibda garovga qo'yadi va kafillikga topshiradi.

## **XII. JAMIYATNING BUXGALTERIYA XISOBI va MOLIVAVIY XISOBOTI.**

12.1. Jamiyat va uning bo'linmalari buxgalteriya hisobining Milliy andozalariga muvofiq tezkor va buxgalteriya hisobini yuritadi, shuningdek, amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda buxgalteriya va statistika hisobotlarini tuzadi.

12.2. Jamiyat korxonalarini belgilangan tartibda Jamiyatga soliq va boshqa davlat idoralariga amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq o'zining moliyaviy xo'jalik faoliyati natijalari haqidagi zarur ma'lumotlarni taqdim etadi.

12.3. Jamiyat va uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va bo'linmalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati nazorati moliyaviy hamda taftish xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, taftish ichki va tashqi audit asosida amalga oshiriladi.

12.4. Jamiyat va uning tarkibiga kiruvchi korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining ichki auditi, ular tomonidan mulk va mablag'lardan maqsadli foydalanishini tekshirish, shuningdek Jamiyat ijro organining ishini nazorat qilish va baho berish Jamiyatning ichki audit xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

12.5. Jamiyat va uning korxonalari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining tashqi auditi, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, shartnoma asosida auditorlik tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

12.6. Jamiyat buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, uning holati va haqqoniyligi, yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlarning tegishli idoralarga o'z vaqtida taqdim etilishi, shuningdek, Jamiyatning faoliyati haqida kreditorlarga va ommaviy axborot vositalariga taqdim etilgan ma'lumotlar uchun amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ravishda Jamiyatning ijro etuvchi organi mas'uldir.

12.7. Ko'rsatilgan hujjatlarni e'lon qilishdan oldin Jamiyat, yillik moliyaviy hisobotlarni tekshirish va tasdiqlash uchun Jamiyat yoki uning korxonalari uchun mulkiy manfaatlar bilan bog'liq bo'lmagan auditorni jalb etishi shart.

12.8. Jamiyat:

- belgilangan tartibda ro'yxatga olingan Jamiyat Ustavini hamda Ustavga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni, Jamiyatning tuzilishi va qayta tashkil etilishiga doir hujjatlarni, Jamiyatning davlat ro'yxatiga olinishi haqidagi guvohnomani;

- Jamiyatning o'z balansida bo'lgan mulkka egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni;

- Jamiyat tarikibiga kiruvchi korxonalar va bo'linmalar, Jamiyat filiallari va vakolatxonalari haqidagi nizomlarni;

- Jamiyat Yagona aksiyadori, Kuzatuv kengashi va Ijroiya organi yig'ilishlarining bayonnomalarini, shuningdek Jamiyat Ijroiya organining buyruq va farmoyishlari;

- davlatning tegishli organlariga taqdim etiladigan Jamiyatning moliyaviy hisobotlari;

- hay'atlar, auditorlik tashkilotlari, davlat nazorat idoralarining xulosalari va hisobotlarini;

- Jamiyat Ustavida, Jamiyat boshqaruvi organlari qarorlarida, hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni o'zida saqlashi shart.

### **XIII. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH**

13.1. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### **XIV. YAKUNIY QOIDALAR**

14.1. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar tomonlarning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu ustavga asosan hal qilinadi.

14.2. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

14.3. Mazkur Ustav Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

14.4. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan masalalar, qonunda boshqa hollar nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Ustavga muvofiq tartibga solinadi.

Boshqaruv raisi



Z.E. Maxamatov